

O'ZBEK MIZROBLI CHOLG'ULARINING PAYDO BO'LISH TARIXI

Qudratova Gulurux Abduvosi qizi

Qarshi Davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti

Cholg'u ijrochiligi yo'naliши 1-kurs magistranti

Email: gulrukh.kudratova2020@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekistonda arxeologik qazilmalardan ilk marotaba milliy cholg'u asoblarimizning namunalari topilganligi, ushbu hududda mizroblı cholg'ularning paydo bo'lishi, ularning tahlili, bu cholg'u asboblarining viloyatlarda qo'llanilishi haqida qimmatli materiallar to'plangan.

Kalit so'zlar: Musiqa madaniyati, ritm, ohang, qadimgi cholg'ular, puflama cholg'ular, zarbli cholg'ular, lyutnyasimon cholg'u, rubobsimon cholg'u, burg'u, karnay, surnay, ud rud, shemane (musiqor), chag'ona, chiltor, nay.

ABSTRACT

This article contains valuable materials on the discovery of samples of our national musical instruments for the first time in archeological excavations in Uzbekistan, the emergence of mizrob instruments in the region, their analysis, the use of these instruments in the regions.

Keywords: Music culture, rhythm, melody, ancient instruments, wind instruments, percussion instruments, lyutnyasimon instrument, rubobsimon instrument, trumpet, trumpet, trumpet, ud rud, shemane (musician), chagona, chiltor, nay.

Insoniyat yaratilibdiki, uni musiqasiz tasavvur etish mumkin emas. Musiqa insonning qon-qoniga, jismi joniga singib ruhiga payvasta bo'lganki, hatto ilk ibridoiy odamlar ham o'zlarini musiqa bilan ovutganlarini tarix yuzaga chiqarib bo'lgan. Lekin hali hech kim musiqa va musiqiy sozlarning qachondan va qay tariqa insoniyatning ajralmas bir bo'lagiga aylanganini aytib bera olmaydi. Faqatgina qazilmalar orqali topilgan arxeologik topilmalar asosida taxmin va farazlarni ilgari surishimiz mumkin xolos. O'zbek xalqining madaniy boyligi bo'lgan musiqiy sozlarni o'rghanish va ularni asrab ma'naviyatning bir bo'lagi sifatida keying avlodga yetkazish maqsadi va ma'suliyati bugun har qachongidan muhimdir. Negaki, bugungi kunga kelib milliy sozlarning qadri biroz pasayib, Yevropa cholg'ulari keng ommalashayotgan bir paytda

kelajak avlodga milliy musiqaning boy tarixi hamda imkoniyatlari bilan yetkazish har bir musiqa o‘qituvchisi hamda musiqashunosning oldidagi ulkan vazifa hisoblanadi. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 2-fevral kuni “madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi. Unga ko‘ra, 2022/2023-o‘quv yildan boshlab ta’lim muassasalarida o‘quvchi va talabalarining madaniy bilim va ko‘nikmalarini oshirish, yosh iste’dodlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalgalashiriladi. Maktab o‘quvchilariga esa milliy musiqa cholg‘ularidan kamida bittasini chala olish mahorati o‘rgatiladigan hamda bu haqda ularning ta’lim to‘g‘risidagi hujjati (shahodatnama)ga tegishli qayd kiritiladigan bo‘ldi. Musiqa fani o‘qituvchilari esa milliy cholg‘ularidan kamida bittasini, 2023/2024-o‘quv yildan boshlab kamida uchtasini chala olish mahoratiga ega bo‘lishi majburiy hisoblanadi. Bu qilinayotgan ishlarning barchasi yoshlarning milliy ruhda ta’lim olishiga, xalqimizning azaliy qadriyatlariga ruhmat bilan voyaga yetishlari uchun qilinayotgan sa’y-harakatlardir.

Shu jumladan, o‘zbek xalqi musiqa madaniyatini ham ko‘p yillarga, eramizdan avvalgi minginchi yillarga borib taqash mumkindir. Musiqa madaniyatiga oid eng ko‘hna namunalar neolit va bronza davrining (V-II ming yilliklar) yodgorliklaridir. Bu yodgorliklarda asosan bir xil harakat qilayotgan odamlar bo‘lib, ular ov bilan bog‘liq afsun raqslarini ijro etayotganliklari haqida taxminlarni ilgari surishadi. Bu davrlarda musiqa amaliy vazifani bajarganini, insonlarga ov qilish vaqtlarida hamrohlik qilganidan bilishimiz mumkin. Bunda oddiy ohanglar, ritmlar, bir xil tkrorlanuvchi tovush birikmalaridan foydalanilgan. Musiqaning ana shunday qadimgi shakllari uzoq vaqt saqlanib qolgan. Ular haqida Abu Rayhon Beruniy ham ma’lumot berib o‘tgan: ”Biz bunday odatni xalqimizda kiyiklardan ham ko‘ra tutish qiyin bo‘lgan tog‘ echkilarini ovlash vaqtida ko‘ramiz. Odamlar dam olayotgan hayvonlarni ko‘rib qolishsa, uning atrofini o‘rab, bir xil ohanglarni to jonzotlar ko‘nikib olgunlaricha kuylab, aylana boshlashadi. Keyin davrani toraytirib borishadi. Ohanga o‘rganib qolgan jonzotlar bexavotir yotgan paytida uni urib, qo‘lga olishadi. Kata (kaklikning bir turi) ovchilari esa, kechasi bilan mis idishlarni bir xil, o‘zgarmas maromda urib ovoz chiqaradilar. Shu tariqa ular qushni o‘z qo‘llari bilan tuta oladilar. Agar marom o‘zgartirilsa, qushlar turli tomonga uchib ketishlari mumkin.⁴

Musiqa avval ham hozir ham raqs, ritm, ohang va ohangdosh so‘zlar bilan birga qo‘llanilgan. Chunki ilgari zamonlarda odamlar o‘z tirikchilik sohalarida (chorvachilik, dehqonchilik) musiqadan unumli foydalanishgan. O‘zbekiston hududidan topilgan suyakdan yasalgan naylar o‘zbek arxeologlarining e’lon qilishicha bronza davriga tegishli bo‘lgan. Eng qadimgi topilmalardan biri bu burchak shaklidagi

1Абу Рейхан Бируни. Избранные произведения. Том II.Индия./Перевод А.Б.Халилова и Ю.Н. Завадовского-Ташкент,1963. 193-194-бетлар.

arfa chalayotgan musiqachi va uning zodagon tinglovchisi tasvirlangan sopol ko‘za bo‘lib, u Xorazm viloyati hududida joylashgan madaniy-tarixiy (eramizdan avvalgi IV-III asrlar) Qo‘yqirilgan qal’a shaharchasidan topilgan.⁵

Arxeologik topilmalardan biz qadimgi cholg‘ularni asosan zarbli, torli va puflama cholg‘ular ekanligini bilishimiz mumkin. Ahamoniylar hukmdori Kir tomonidan O‘rta Osiyoning bosib olinishi (eramizdan avvalgi 539-yil) va bu hududlarning boshqaruvi ikki asr mobaynida ushbu sulolaning qo‘liga o‘tishi, O‘rta Osiyo madaniyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmagan albatta. Harbiy maqsatlarda ishlatilgan metalldan yasalgan karnay va zarbli cholg‘ular shu zamonlarda paydo bo‘lgan degan ehtimollar ham mavjud. Abu Nasr Forobiy o‘zining “Musiqa haqida katta risola” asarida qadimgi yunon shohlari harbiy yurishlar vaqtida karnaylardan foydalanganini yozgan. Iskandar Makedonskiy yurishlari O‘rta Osiyoga yunon madaniyati va cholg‘ularining kirib kelishiga sabab bo‘lgan. Qadimgi tasviriy metallarda lira, avlos, kifara (Pan fleytasi, sirinks) kabi yunon asboblarini uchratish mumkin. Ancha keyin islom dinining O‘rta Osiyoga kirib kelishi yunon madaniyati ta’siridagi O‘rta Osiyo xalqlari hayotida musiqiy asbob va musiqa fani asoschilari Pifagor, Arastu, Aflatun haqidagi afsona va rivoyatlar bilan birga saqlanib qoldi. IX-XI- asrlarda musiqa Forobiy, Ibn Sino, Muhammad Xorazmiy, Faxriddin Roziy va boshqa ko‘plab alloma va olimlar tomonidan tadqiq qilindi va o‘rganildi. O‘rta Osiyo arablar bosqiniga uchragunga qadar ya’ni VIII asrlarda eng yirik tarixiy- madaniy hududlar – Choch, Baqtriya, Sug‘d, Tohariston, Xorazm, Farg‘ona kabi shaharlarda musiqiy madaniyat ancha rivojlangan edi. Har bir viloyatning o‘ziga xos an’analari , madaniyati bo‘lgan va bunga sabab uzoq vaqt yagona din hukmron bo‘lmanini ko‘rsatish mumkin. Bir vaqtning o‘zida zardushtiylik, nasroniylik, yahudiylilik, shuningdek, turli diniy ta’limotlar hukm surgan. Har bir dinning o‘z tartib qoidasi, o‘z ta’limoti va ta’qiqlari bo‘lgan. Odamlar qaysi dinga amal qilsalar, o‘sha din tartib-qoidasi bo‘yicha musiqani tushunganlar va tahlil qilganlar.

Bu davrlarda lyutnyasimon (maxsus mizrob bilan chertib chalinadigan musiqa asbobi) cholg‘ular keng tarqalgan bo‘lib ular asosan ikki “qarindosh” guruhga: qisqa dastali (ud yoki Yevropa lyutnyasiga o‘xshash) va uzun dastali (tanburga o‘xshash) bo‘lingan.

XX asrning 30-40-yillarida bir qator olimlar (V.A.Vyatkin, S.L.Tolstov, M.B.Masson) O‘rta Osiyo tarixi xususan, musiqasi borasida qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘ldilar. Afrosiyob, Tuproqqal’a, Ayratam kabi shaharlardan topilgan sopol idishlarda bir qator musiqa asboblarini chalayotgan mashshoqlar tasvirlangan edi.

⁵ “O‘zbekiston madaniy merosi ” mualliflik turkumi: “O‘zbekiston musiqiy merosi Rossiya Federatsiyasi to’plamlarida” kitob- albomi/F.F.Abduholiqov,E.V.Rtveladze,A.B. Jumayev//Toshkent:”Silk Road Media”,”East Star Media” MCHJ, “Darakchi inform servis” MCHJ buyurtmasiga ko‘ra,2020-464b- 57-bet

Bular lyutnya, rubobsimon cholg‘u, burg‘u, karnay,surnay,ud rud, shemane (musiqor), chag‘ona, chiltor, nay,qonun kabi musiqa sozlar edi.⁶ Musiqashunos

A.Nazarovning “Antik davr musiqa madaniyati” qo‘lyozmasida yozilishicha, yunonlarning lirasi (arfasiomon cholg‘u) esa O‘rta Osiyo qadimgi yodgorliklarida topilmagan va bu bilan O‘rta Osiyoda bu cholg‘udan foydalanmagan degan qarorga kelish mumkindir deyilgan⁷.

T.S.Vizgoning ta’kidlashicha, qadimgi So‘g‘d, Xorazm va Baqtryaning musiqiy amaliyotida keng tarqalgan changsimon (arfa),tanbursimon Qadimgi Mesopotamiya va Shumer davlatlari bilan bog‘liq. Darhaqiqat, “Qadimgi Misr ehromlaridagi devoriy yozuvlarda tasvirlangan musiqiy chog‘ular qator konstruktiv jihatlari bilan (cholg‘u kosasining kattaligi, dastasining uzunligi,pardalari, ijrochilik uslubi va h.k) o‘zbek musiqa amaliyotida keng qo‘llaniladigan rubob va tanbur cholg‘ularini eslatadi”⁸

Arxeologik topilmalardagi sozandalarning cholg‘ulari shakli, o‘lchamlari, torlarining soni jihatidan bir-biridan ancha farqlanadi. Biroq ularda quyidagi umumiy xususiyatlar yaqqol ko‘zga tashlanadi:

- sanam-sozandalarning deyarli barchasi tik holatda tasvirlangan;
- cholg‘uning kosaxonasi sozandaning o‘ng tomonida, dastasi esa chapda (ya’ni, o‘ngdan chapga holatda);
- sanam-sozandalar o‘ng qo‘lida noxun (mediator) yaqqol ko‘zga tashlanadi;
- aksariyat sozlar to‘rt torga, ayrimlari uch torga ega;
- cholg‘ularning korpusi yumaloqsimon shaklda, chap dasta tomon cho‘zilgan;
- torlar ba’zi cholg‘ularda xarrakka, ayrimlarida esa o‘ng tomonda kosaxona ostiga biriktirilgan;
- cholg‘ularning bosh qismi orqaga yo‘naltirilgan; - torlar dastaning bosh qismida 4 yoki 3 burag‘ich qoziqchalar (qulooqchalar)ga ulangan.⁹

VII asrda arablarning Osiyoga kirib kelishi va VII-VIII asrlarda arab xalifaligining barpo bo‘lishi O‘rta Osiyo hududida islom dinining yoyilishi devoriy suratlarni, shu bilan birga musiqa cholg‘ularining tasvirini barham topishiga sabab bo‘ldi.

Shunga qaramasdan biz O‘rta Osiyo va O‘zbekiston musiqa madaniyati haqida ko‘plab musiqashunos hamda ma’rifatparvar olimlarning yozgan asarlaridan bilib olishimiz mumkin. Olimlarimiz Forobi (873-950), “Musiqa haqida katta kitob”, ibn Sinoning (980-1037), “Davolash kitobi” qomusidagi “Musiqa haqida risola”, Al-

⁶ Odilov A. “O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi.-T.: O‘qituvchi, 1995-128 b 8-bet”

⁷ Nazarov A.Antik davr musiqa madaniyati. Qo‘lyozma.San’atshunoslik institeti kutubxonasi.Inv №997 2003-yil 6-bet

⁸ Вызго Т.С Музикальные инструменты Средней Азии М.1980.с 46

⁹ Sh.Ayxodjayeva, Ch.Ergasheva, A.Zokirov O ‘zbek musiqasi tarixi Darslik. « Fan Ziyosi » nashriyoti - Toshkent: 2021 y. - 266 bet 27-bet

Xorazmiyning (X asr) “Bilimlar kaliti”, Safiuddin Urmaviyning (1216-1294) “Olijanoblik haqida kitob,” Jomiyning (1414-1492) “Musiqa haqida risola ” kitoblaridan musiqa madaniyatimiz, cholg‘ular tarixi va ijrochilik shakllaridan xabar topishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, shu kungacha yetib kelgan ma’lumotlar asosida biz o‘zbek xalqining qadimgi cholg‘ularini bilib olishimiz, ular tarixi haqida kerakli va qimmatli manbalarga ega bo‘limiz mumkin. Davlatimiz rahbari ham bu borada keng qamrovli ishlarni olib borayotgan ekanlar, musiqa sohasi vakillaridan faqatgina mehnat va tirishqoqlik talab etiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абу Рейхан Бируни. Избранные произведения. Том II.Индия./Перевод А.Б.Халидова и Ю.Н. Завадовского- Ташкент,1963.
2. “O‘zbekiston madaniy merosi ” mualliflik turkumi: “O‘zbekiston musiqiy merosi Rossiya Federatsiyasi to‘plamlarida” kitob-albomi/F.F.Abduholiqov,E.V.Rtveladze,A.B. Jumayev//Toshkent:”Silk Road Media”,”East Star Media” MCHJ, “Darakchi inform servis” MCHJ buyurtmasiga ko‘ra,2020-464b
3. Odilov A. “ O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi.-T.: O‘qituvchi, 1995-128 b ”
4. Nazarov A.Antik davr musiqa madaniyati. Qo‘lyozma.San’atshunoslik instetuti kutubxonasi.Inv №997 2003-yil
5. Вызго Т.С Музикальные инструменты Средней Азии М.1980.с
6. Sh.Ayxodjayeva, Ch.Ergasheva, A.Zokirov O ‘zbek musiqasi tarixi Darslik. « Fan Ziyosi » nashriyoti - Toshkent: 2021 y. - 266 bet